

Denov tumanida paxta maydonlari defoliatsiyasi va yig'im-terim mavsumi oldidan ko'rgazmali seminar o'tkazildi



Surxondaryo viloyati Denov tumani “Surxon sifat tekstil klaster” MChJga qarashli paxta qabul qilish maskanida viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov, qishloq xo’jaligi mas’ullari, paxta to’qimachilik klasterlari, fermer xo’jaligi rahbarlari ishtirokida g’o’zani defoliatsiya qilish, yig'im-terim mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha seminar bo'lib o'tdi.

Denov tumanida 8 788 hektar maydondagi paxta hosilini yig'ishtirib olish uchun 226 ta otryad tashkil etilgan, 180 ta maxsus texnika va 267 ta tirkama jalb qilingan. Otryadlar, jalb qilingan texnikalar va OVX purkagichlarining shaylik holati, terimchilar uchun paxta maydonlarida sharoit yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman hokimi va sektor rahbarlarining axboroti tinglandi.

Viloyat rahbari mas'ullarga yig'im-terim mavsumiga puxta hozirlik ko'rish, belgilangan maydonlarda defoliatsiya tadbirlarini uyushqoqlik bilan muddatida amalga oshirish topshirig'ini berdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)